

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrası professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlát Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
“Yashil” iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
“Universitet-ishlab chiqarish” integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayansh doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar	421
M.A.Saparova , talaba	



O'ZBEKISTONDA IPAKCHILIK SANOATINING RIVOJLANISH STRATEGIYALARI SAMARASI

Jumayev Olimjon Sadulloyevich

O'zbekipaksanoat uyushmasi boshqaruv raisi, tadqiqotchi



Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston ipak sanoatini rivojlanishi bo'yicha 2017–2021-yillar uchun statistik tahlil amalga oshirilgan. Ipakchilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarida belgilangan vaziflar ijrosi yoritilgan. Ipakchilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha strategik maqsadlar belgilangan va ularga erishish uchun asos bo'luvchi omillar aniqlagan.

Kalit so'zlar: ipak, ipak sanoati, pilla, pilla qurti, tutzorlar, qo'shilgan qiymat, eksport, marketing, strategiya, maqsadli dasturlar, ishlab chiqarish.

Аннотация: В данной статье проведен статистический анализ развития шелковой отрасли Узбекистана за 2017–2021 годы. Освещена реализация задач, определенных в решениях и указах Президента Республики Узбекистан по развитию шелковой отрасли. Определены стратегические цели развития шелковой отрасли и определены факторы, являющиеся основой их достижения.

Ключевые слова: шелк, шелковая промышленность, кокон, коконовый червь, коконы, добавленная стоимость, экспорт, маркетинг, стратегия, целевые программы, производство.

Abstract: In this article, a statistical analysis of the development of the silk industry in Uzbekistan for the years 2017–2021 has been carried out. The implementation of the tasks defined in the decisions and decrees of the President of the Republic of Uzbekistan on the development of the silk industry is highlighted. The strategic goals for the development of the silk industry have been defined and the factors that are the basis for their achievement have been determined.

Key words: silk, silk industry, cocoon, cocoon worm, cocoons, added value, export, marketing, strategy, targeted programs, production.

Pilla yetishtirish va ipakni qayta ishlashni o'z ichiga oluvchi sanoat tarmog'i dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlarda mavjud bo'lib, yuqori bandlik salohiyatiga ega hamda daromadli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ipak tolasi va undan olinadigan mahsulotlar o'zining nafisligi, nozikligi va ekologik toza tabiati tufayli bozorda ehtiyoji yuqori bo'lgan mahsulotlar sirasiga kiradi. Sanoat usulida qayta ishlangan ipak tolalarining to'qimachilik sanoati, tibbiyot va informatika kabi murakkab sohalarida keng qo'llaniladi. Shu sababli ipakka bo'lgan talab har doim bozorda yuqori bo'lsada, mavjud talabni qondirish imkoniyatlari doimiy ravishda ishlab chiqarish yoki iqtisodiy raqobatbardoshlik darajasida turli to'siqlar bilan ta'sirlanadi, jumladan, ipak tolasi o'rnini bosivchi sintetik tolalarni arzon narxlarida ishlab chiqarish va arzon tabiiy tolalar (masalan paxta) bilan o'rnini qoplash fikrimizning isbotidir.

Ipakchilik sohasida O'zbekiston jahondagi yetakchi mamlakatlar sifatida uni rivojlantirish uchun uzoq tarixiy bosqichlardan o'tgan bo'lib, aholisining uzoq yillik va an'anaviy avloddan avlodga o'tishi bilan saqlanib va rivojlanib kelayotgan sohadir. O'zbekiston uchun ipakchilik tarmog'ining asosiy xususiyati uzoq yillik tarixga ega ekanligi bilan bir qatorda "Atlas" brendining xalqaro brend darajasiga ko'tarilgani va kiyim sanoatida "Prette-porte" brendlar qatorida turishidir.

O'zbekiston ipakchilik sanoati So'nggi yillarda ma'lum bir pasayish siklini o'tadi, jumladan, tutzorlarning qisqarib ketishi va tut plantatsiyalarining yetarlicha shakllantirilmasligi, tutzorlarni parvarish qilishda yo'l qo'yilgan xatoliklar, xo'jalik yuritish shakllarining noto'g'ri tanlanishi, mahsulot yetkazib berish, uni qayta ishlash yo'nalishlarining bir-biridan ajratilishi ishlab chiqarishning pasayishiga va ipak xom ashyosining qimmatlashuviga, natijada esa, bozor talabini to'liq qondira olmaslikka sabab bo'ldi. ¹

¹ Rasuljonovich K. R. Organizational and economic actual strategies for the further development of silk industry in the republic of Uzbekistan //International Journal of Management IT and Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 10. – S. 66–78.



Bir qator tizimli muammolar sabab O'zbekistonning Yevropa va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarning bozoriga kirib borishida, o'zining ipak mahsulotlarini sotishida qiyinchiliklarga duch keldi. Rivojlangan mamlakatlar ipak mahsulotlari importi, asosan, Xitoy va Hindiston mamlakatlardan amalga oshirilayotganligi bois, O'zbekistonning eng daromadli mamlakatlarga ipakli mahsulotlar eksportida ulushi pastligicha qolmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor maqsadi aholining hayot darajasini yuksaltirish, kambag'allikni qisqartirish, yangi va doimiy ish o'rinlarini ochishdir. 2022-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida jami 54,8 ming ga. yer maydonlarida ipak qurti uchun tutzorlar mavjud bo'lib, 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra 2017-yilga nisbatan 11,1 ming ga. yoki 125,5 foizga ortgan.

1-jadval: O'zbekiston Respublikada 2017–2022-yillarda mavjud tutzor va yakka qator tut daraxtlari, ekilgan tut ko'chatlari hamda yetishtirilgan pilla xom ashyosi to'g'risida ma'lumot²

№	Hududlar nomi	O'lchov birligi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yilda 2017-yilga nisbatan	
									+/-	%
1	Mavjud tutzorlar	hektar	43675,2	46317,0	48720,6	50272,8	54803,6	54803,6	11128,4	125,5
2	Mavjud yakka qator tut daraxtlari	ming tup	45497,0	61081,6	79698,2	85493,7	149737,2	217461,0	171964,0	478,0
3	Ekilgan tut ko'chatlari	ming tup	2894,0	32931,8	63100,7	82088,3	120387,2	122991,1	120097,1	4249,9
4	Yetishtirilgan pilla xom ashyosi (1–2 mavsum)	tonna	12480,3	15665,1	19607,1	20941,9	22769,9	24230,9	11750,6	194,2

O'zbekistoning mavjud iqlim sharoitlari tut daraxtlaridan ikki-marta foydalanish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, yetishtirilgan pilla xom ashyosi (1–2 mavsum) uchun 2017-yilda 12,4 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 11,7 ming tonnaga yoki qariyb 2 martaga oshirishga erishilgan. Dala va yo'l chetlarida mavjud yakka qator tut ko'chatlari soni ham yildan-yilga o'sishi kuzatilmoqda. 2017-yilda yakka qator tutlarning miqdori 45,5 mln. donaga yaqin bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda ularning soni 217,4 mln. donadan ortib ketganligini ta'kidlash joiz, ayniqsa, keyingi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy davlat dasturi asosida tut ko'chat ekishga ham chuqur e'tibor qaratilib, ularning soni o'rtishiga xizmat qildi.

Har yili tutzorlar-maydonining ortib borishi, ipakchilik sohasi ozuqa bazasining mustahkamlanib borishiga xizmat qilmoqda. Mazkur holatlar ma'lum bir-maydondagi tutlardan olinadigan ozuqa miqdorining, ma'lum bir hududdagi ozuqa birligining o'rtishiga va hosildorlikka yuqori darajada ta'sir ko'rsatgan. 2017-yilda O'zbekistonda jami 12480,3 tonna pilla xom ashyosi tayyorlangan bo'lsa, 2022-yilda 24230,9 tonnani tashkil etgan. Pilla xom ashyosining o'rtishi natijasida yetishtiriladigan ipak tolasi miqdori ortib tarmoqning jahon ipak bozoridagi mavqei mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

"O'zbekipaksanoat" uyushmasi mamlakatdagi mazkur tarmoqni rivojlantirish bo'yicha faoliyatlarni muvofiqlashtiruvchi tashkilot hisoblanadi. Uyushmaga a'zo korxonalar tomonidan 2022-yilda jami 2014,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, uning yalpi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 0,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 3,2 foizni tashkil etgan. 2022-yilda O'zbekistonda jami 521,6 ming tonna xom ipak tolasi, 286,9 ming tonna ipak momig'i, 617,1 ming p.m ipak mato, 246,8 ming tonna ipak kalava, 338,9 ming tonna tayyor ipakli mahsulotlari, 3,5 dona ipak gilamlar ishlab chiqarilgan (2-jadval).

² "O'zbekipaksanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan



2-jadval: Respublika ipakchilik tarmog'ida mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-yilda 2015-yilga nisbatan o'sishi %
Mahsulot ishlab chiqarish	mlrd. so'm	130,5	274,3	588,0	849,6	1 140,5	2 014,9	2266,5
O'sish sur'ati	%	131,6	210,2	214,4	144,5	134,2	176,7	181,2
Mahsulot turlari								
Ipak tolasi	tonna	526,3	785,0	1 000,0	1 200,0	1 570,0	2 500,0	401,5
Ipak momig'i	tonna	455,5	511,3	700,0	800,0	1 100,0	1 200,0	1558,4
Ipakli matolar	ming PGM	811,0	870,0	2 150,0	2 557,0	3 651,4	12 341,8	3022,7
Ipakli gilamlar	dona	25,0	60,0	90,0	250,0	393,0	885,0	17700
Ipak chiqindilari	tonna	90,0	180,0	700,0	800,0	1 000,0	1 100,0	2200
Tayyor ipakli mahsulot	ming dona	650,0	800,0	1 100,0	1 200,0	1 400,0	1 694,6	338,9
Ipak kalava	tonna	-	-	400,0	700,0	900,0	1 100,0	-
Ipak qurti urug'i	kuti	81 690,0	81 833,0	157 866,0	185 930,0	240 000,0	320 000,0	3200
Tut ko'chatlari	mln. dona	2,9	32,9	63,1	82,1	120,4	123,0	24,6
Ipak tolasi	mlrd. so'm	45,7	96,0	270	348	455,3	521,6	1676,4
Ipak momig'i	mlrd. so'm	39,2	82,3	140	182,2	239,1	286,9	1075,7
Ipakli matolar	mlrd. so'm	36,5	76,8	107,5	230,1	328,6	617,1	2479,1
Ipakli gilamlar	mlrd. so'm	9,1	19,2	0,5	1,3	2,0	3,5	56,2
Ipak chiqindilari	mlrd. so'm	13,5	27	70	88	115,5	132,0	1760
tayyor ipakli mahsulot	mlrd. so'm	97,5	120	165	180	280	338,9	847,3
Ipak kalava	mlrd. so'm	-	-	130	150	200	246,8	-
Ipak qurti urug'i	mln. so'm	3 430,98	6 382,97	16 733,80	19 708,6	25 440,0	40 320,0	4032
Tut ko'chatlari	mln. so'm	2,03	23,05	50,48	82,09	144,46	184,49	36897,3

*"O'zbekipaksanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida amaldagi baholarda hisob-kitob qilingan.

Ipak va ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekistondagi eng yetakchi hudud Samarqand viloyati hisoblanib, jami ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 13,1 foizi ushbu viloyat hissasidir. Keyingi o'rinlarini esa 12,6 foiz ulush bilan Andijon viloyati, 10,3 foiz ulush bilan Buxoro viloyati egallaydi. 2022-yilda respublika bo'yicha 2 trl. so'mdan ortiq ipakchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich qariyb 3 trl. so'mga yetkazilishi kutilayapti (3-jadval).

**3-jadval:** O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha ipakchilik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm³

T/r	Hududlar	Yillar					O'sish sur'ati %
		2019	2020	2021	2022	2023 (prognoz)	
	jami:	592,4	861,1	1 140,50	2 014,9	2 997,0	505,9
1	Qoraqalpog'iston Resp.	18,5	28,6	38,0	69,9	103,0	556,8
	Viloyatlar						
2	Andijon	82,3	110,6	147,5	254,6	381,0	462,9
3	Buxoro	61,3	71,1	119,5	208,2	310,7	506,9
4	Jizzax	17,8	29,5	38,0	71,7	105,0	589,9
5	Navoiy	59,6	81,7	108,6	87,1	128,8	216,1
6	Namangan	26,4	37,8	48,3	168,6	250,9	950,4
7	Qashqadaryo	49,8	73,3	95,6	190,2	283,6	569,5
8	Samarqand	79,6	130,7	147,4	263,2	390,4	490,5
9	Surxondaryo	45,0	67,0	86,9	152,5	227,2	504,9
10	Sirdaryo	12,9	18,6	31,5	53,8	80,8	626,4
11	Toshkent	34,2	58,8	77,6	140,7	207,8	607,6
12	Farg'ona	55,1	81,6	105,9	189,3	280,7	509,4
13	Xorazm	50,2	71,7	95,6	165,1	247,0	492,0

Respublikada pillachilikning ozuqa bazasini jadal rivojlantirish, ipak qurtini parvarish qilish va pilla yetish-tirish jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish, pilla, xom ipak, ipak kalava ishlab chiqarish va ularni chuqur qayta ishlashning samarali usullarini keng joriy etish, ipakdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, sohaning eksport salohiyatini yuksaltirish hamda qishloq joylarda aholi bandligi va daromadlari darajasini oshirishni ta'minlaydigan yagona va yaxlit tashkiliy-texnologik tizimni barpo etish asosida pillachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi PQ–2856-son qarori bilan "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tashkil etilgan. "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tashkil etilgandan so'ng pillachilik sohasida 2017–2022-yillarda amalga oshirilgan islohotlar quyidagi maqsadlarni o'z ichiga olgan qonuniy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan, jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-yanvardagi PQ–3472-son "Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi PQ–3616-son "Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi PQ–3910-son "Respublikada pillachilik tarmog'idagi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrda PQ–4047-son "Respublikada pillachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ–4411-son "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvar – PQ–4567-son "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-iyundagi PQ–4759-son "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyul PQ–5178-sonli "Respublikada mavjud yay-lovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlar;

3 "O'zbekipaksanoat" uyushmasi ma'lumotlari asosida



Oxirgi yillarda qabul qilingan, jumladan, 2023-yil 24-fevraldagi “Ipakchilik tarmog’ini yanada rivojlantirish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida” PQ–73-son qarori, 2023-yil 1-iyundagi “Pillachilik sohasida kasanachilikni qo’llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF–85-sonli qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-martdagi “Pillachilik va tutchilik tashkilotlariga tutzorlarda suvni tejaydigan sug’orish texnologiyalarini joriy qilish uchun sarflangan xarajatlarning bir qismini qoplab berish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 128-sonli qarori, 2021-yil 24-dekabrda “Pilla yetishtiruvchi jismoniy shaxslarga ular tomonidan yetishtirilgan pilla (ho’l pilla) hosili uchun subsidiya ajratish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 773-son 2023-yil 21-iyuldagi “Pillani qayta ishlash va pilla qurti urug’ini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan pilla boquvchilarga yetkazib berilgan ipak qurti urug’i uchun subsidiya ajratish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 305-sonli qarori tarmoqni jadal rivojlantirishda muhim o’rin tutmoqda.

Sohani jadal rivojlantirish maqsadida ushbu qarorlar asosida ipakchilik korxonalari bir qator imtiyozlar taqdim etilgan va bugungacha ayrim turdagi imtiyozlar tizimi ham amal qilmoqda. 2023-yil 1-yanvardan ba’zi imtiyozlarning muddati yakuni yetdi, jumladan, PQ–2856 sonli qarorga ko’ra, ipak qurti urug’ini ishlab chiqarish, pillani yetishtirish, tayyorlash va qayta ishlash, tayyor ipak mahsulotlar hamda pillachilik tarmog’i uchun yordamchi materiallarni (sun’iy pilla o’rash dastalari) ishlab chiqarishdan olinadigan daromadlar – aylanmadan olinadigan soliqni to’lash, pilla yetishtiruvchi tashkilotlar – pilla yetishtirish bilan shug’ullanuvchi kasanachilar va boshqa ishchi-pillakorlar mehnatiga haq to’lashga yo’naltiriladigan mablag’lari bo’yicha ijtimoiy soliqdan ozod etish va bundan bo’shagan mablag’lar kasanachilar va ishchi-pillakorlarni moddiy rag’batlantirishga yo’naltirish, uy sharoitida tirik pilla yetishtirish bilan shug’ullanuvchi (kasanachi)lar – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i to’lashdan ozod etish bilan bog’liq imtiyozlar muddati tugagan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3472 son qarorining 10-bandi, PQ–4047 7-bandi, PQ–4411 2-bandi, PQ–4411 9-bandlarida belgilangan imtiyozlar davri tugagan bo’lib, ularni uzaytirish pilla xom ashyosi yetishtiruvchi tizim korxonalarining investitsiya va modernizatsiya tadbirlarini amalga oshirishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

2017–2022-yillarda ipakchilik korxonalari tomonidan imtiyozlardan samarali foydalanish natijasida jami 93,1 mlrd. so’m mablag’lar iqtisod qilingan bo’lib, shundan, 33,1 mlrd. so’m texnologik uskunalar sotib olish uchun, 32 mlrd. so’m ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun, 10,7 mlrd. so’m xodimlarni moddiy rag’batlantirish uchun hamda 17,3 mlrd. so’m boshqa tadbirlar uchun maqsadli yo’naltirilgan.

Taqdim etilgan imtiyozlar natijasida bir qator tarmoqda bir sezilarli o’zgarishlar amalga oshirildi:

1. 2022-yilda ipakchilik klasterlari soni 74 taga yetkazilib, 2017-yilga nisbatan 57 ta yangi klaster faoliyati yo’lga qo’yilgan, 11 ta ipak qurti urug’chiligi korxonasi va 22 ta tut ko’chatlari yetishtirishga ixtisoslashgan xo’jaliklar faoliyat yuritgan.
2. 2017-yilga nisbatan tutzorlar 11,3 ming gektarga (126 foiz) hamda yakka qator tut daraxtlari soni 105,7 mln tupga (3,4 baravar) oshgan.
3. 4 mavsum pilla yetishtirish yo’lga qo’yilishi natijasida 2022-yilda 26,7 ming tonna pilla xom ashyosi yetishtirilgan (2017-yilga nisbatan 14,2 ming tonnaga yoki 2,1 baravarga ko’p).
4. Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari 2 trln. so’mga yetkazildi (2017-yilga nisbatan 1,9 trln. so’mga ko’p). Mazkur ko’rsatkich 2017-yilda 130 mlrd. so’mlik ipak mahsulotlari ishlab chiqarilgan.
5. Eksport hajmi 95,7 mln. dollarga yetkazilgan (2017-yilga nisbatan 75,7 mln. dollar yoki 4,8 baravarga ko’p).
6. Jami 1 153 ming nafar aholining bandligini ta’minlashga erishilgan (band bo’lganlar soni 2017-yilga (jami 305 ming nafar) nisbatan 3,8 baravarga ko’p).

Sohaga berilgan soliq imtiyozlari uzaytirilishi natijasida 2026-yilda:

1. Pilla yetishtirish hajmlari 31,2 ming tonnaga (2022-yilga nisbatan 4,5 ming tonna ko’p);
2. Ipak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari 5,3 trln. so’mga (2022-yilga nisbatan 3,3 trln. so’m yoki 2,6 baravarga ko’p);
3. Eksport hajmi 191,8 mln. dollarga (2022-yilga nisbatan 96,1 mln. dollar yoki 2 baravarga ko’p);
4. 1322,6 ming nafar aholining bandligini ta’minlashga erishiladi (2022-yilga nisbatan 171,6 ming nafarga ko’p);

Ipakchilik sanoatida 2021-yilda 862 ming 500 nafar fuqaroning bandligi ta’minlanib, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, pilla yetishtirish hajmini ortishi va yangi investitsiya loyihalarini ishga tushirilishi natijasida sohada faoliyat olib boradigan ishchilar sonini 2026-yilda 1 mln. 322 ming nafarga yetkazish prognoz qilingan. Xususan, 2022-yil uchun bu ko’rsatkich 1 mln. 130 ming nafarni, 2023-yilda 1 mln. 175 ming nafarni, 2024-yilda 1 mln. 222 ming nafarni va 2025-yilda 1 mln. 271 ming nafarni tashkil etadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ–4411-son “Pillachilik tarmog’ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Qarorida 2019–2025-yillarda “O’zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ipak mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish bo’yicha prognoz parametrlari belgilab berilgan (4-jadval).

**4-jadval:** 2019–2025-yillarda “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ipak mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha prognoz parametrlari⁴

Mahsulotlar nomi	2018 (haqiqatda)	Yillar							O‘shish sur‘ati %, (2018–2025-yy.)
		2019	2020	2021	2022	2023 Prognoz	2024 Prognoz	2025 Prognoz	
Xom, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mln. doll. ekv.	172,5	193,4	292,0	372,6	441,4	601,0	776,9	977,9	5,7 baravar
Tirik pilla, ming tonna	18,0	19,25	24,75	27,5	28,05	28,6	29,5	30,0	1,7 baravar
Xom ipak, ming tonna	1,91	2,04	2,62	2,91	2,97	3,03	3,12	3,18	1,7 baravar
Ipak momig‘i, tonna	511,3	679	873	970	989,4	1009,2	1039,5	1060,3	2,1 baravar
Kalavallangan ipak ip, tonna	261,3	359,3	770	998,2	1309	1631,9	1833,6	2182	8,4 baravar
Ipak mato, mln. p. m	2,9	4,0	8,6	11,2	14,4	18,0	20,2	24,0	8,2 baravar
Ipak gilamlari, dona	60	90	129	528	1254	1 568	1960	2450	40,8 baravar
Tayyor ipakli mahsulot, mln. dona	0,06	0,4	0,8	1,1	2,0	5, 5	6,9	12,6	207,6 baravar
Ipak mahsulotlarining eksport hajmi, mln. doll.	50,7	65,2	73,8	86,7	151,9	216,5	336,7	515,9	10,2 baravar

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tizimidagi korxonalar 2019-yildan boshlab ipak chiqindilarini qayta ishlash, 2022-yildan boshlab tayyor ipakli mahsulotlarini ishlab chiqarish bosqichlarini o‘zlashtirilgan.

Yuqoridagilardan ma‘lumki, ishlab chiqarishning barcha bosqichi uchun qiymat yaratish “O‘zbekipaksanoat” uyushmasining ustuvor vazifasi hisoblanadi va bu borada So‘nggi yillarda samarali ishlar amalga oshirilgan. 2017–2022-yillar davomida umumiy qiymati 478,6 mln. AQSh dollari qiymatida 418 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur loyihalar doirasida ishlab chiqarish quvvatlari qariyb 8,9 marta oshgan. Amalga oshirilgan loyihalarning aksariyati ipak mahsulotlarini to‘liq qayta ishlash asosida qo‘shilgan qiymat yaratishni nazarda tutuvchi loyihalardir. Tahlil qilinayotgan yillarda xorijiy investitsiya ishtirokida pillani qayta ishlash va ipakli mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘nalishida 440,4 mln. AQSh dollari miqdorida 382 ta loyiha amalga oshirilgan. Keyingi yillarda urug‘chilik tizimini rivojlantirish va ipak qurti urug‘i ishlab chiqarish bo‘yicha ham innovatsion loyihalarni amalga oshiish kengayib bormoqda.

Oxirgi ikki yilda yangi loyihalarning amalga oshirilishi, sohada ilmiy-tadqiqot ishlarining rivojlantirilishi natijasida 10 ta ipak mato, ipak gilam va tayyor ipakli mahsulotlar, 3 ta ipak va jun aralashmalaridan qo‘lda gilam to‘quvchi yirik korxona hamda 1 ta ipak qurti g‘umbagidan oqsil ishlab chiqaruvchi quvvati ishga tushirildi. Ipak qurti g‘umbagidan yog‘ ishlab chiqarish, uning asosida esa qimmatbaho dorivor va farmakologik vositalar, kosmetologiya yo‘nalishidagi mahsulotlar, pilla sovuni, shuningdek, tut bargidan choy ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Amalga oshirilgan loyihalar natijasida eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi oshib borgan. 2017-yilda jami tolaning 56,0 foizi ichki korxonalarda qayta ishlash uchun yo‘naltirilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 85,8 foizni tashkil etgan. Ipak momig‘ining esa 2022-yilda qariyb 77,23 foizi ichki ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan.

Ozuqa bazasi mustahkamalash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Pilla-chilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–85-sonli farmoniga asosan hududlar kesimida 105 ming gektar lalmi va yaylov-maydonlaridan tutzorlar uchun yer ajratilishi va qo‘shimcha ravishda 105 ta ipakchilik klasterlari tashkil qilinishi, pilla yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari tashkil etilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, pilla xom ashyosi yetishtirish ortishi hisobiga “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarishni 1,7 baravardan (tirik pilla va xom ipak ishlab chiqarish) tortib to 207,6 baravargacha (tayyor ipakli mahsulot ishlab chiqarish) oshirish ko‘zda tutilgan.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ–4411-son qaroriga 3-ilova.



Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi va qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan sifatli ipakli mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi natijasida eksport hajmi ham ortishii kuzatiladi. 2022-yilda Uyushma tizimidagi korxonalar tomonidan 96,2 mln. dollar qiymatida mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lsa, 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 257,7 mln. dollarga yetkazilishi kutiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur prognoz ko'rsatkichlariga erishishning muhim shartlaridan biri korxonalarda samarali marketing boshqaruvini yo'lga qo'yish orqali qo'shilgan qiymat yaratish va prognoz bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlarga istiqbolli bozorlarni topishdir.

"O'zbekipaksanoat" uyushmasi tizimidagi korxonalarning maqsadli rivojlantirish ko'rsatkichlari bo'yicha tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali qo'shilgan qiymat yaratish ustuvor strategik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar va asosiy manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-yanvardagi PQ–3472-son "Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi PQ–3616-son "Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-avgustdagi PQ–3910-son "Respublikada pillachilik tarmog'idagi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrda PQ–4047-son "Respublikada pillachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi PQ–4411-son "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvar – PQ–4567-son "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-iyundagi PQ–4759-son "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori;
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyul PQ–5178-sonli "Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlar;
9. Rasuljonovich K. R. Organizational and economic actual strategies for the further development of silk industry in the republic of Uzbekistan //International Journal of Management IT and Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 10. – S. 66–78.
10. Котлер Ф., Келлер К. Л. Маркетинг менеджмент. СПб: Питер, 2008. – 816 с.
11. Багиев, Г. Л. Маркетинг. Учебник для вузов. 3-е изд. / Г. Л. Багиев В. М. Тарасевич, Х.Анн. – СПб.: Питер, 2008. – 736 с.
12. Колесников А. М., Долотова Н. Л., Методы определения и контроля затрат в маркетинговой деятельности предприятия// Технология легкой промышленности. 2014. № 3. С. 16–19
13. Kumar N. Marketing as strategy //Harvard Business School Press, Boston. – 2004. – pp. 7–9.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

